

O'quvchilarda ekologik ta'lim tarbiya va madaniyatni shakllantirish

Gulhayo Salimjon-qizi Abduvaliyeva
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik madaniyatning shakllanishi, ekologik ta'lim va tarbiyaning zarurligi xususida nazariy malumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tabiat, ekologik, ta'lim, tarbiya, madaniyat, muhofaza, tasir

Formation of ecological education and culture in students

Gulhayo Salimjon-kizi Abduvaliyeva
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article provides theoretical information on the formation of ecological culture, the need for ecological education and upbringing.

Keywords: nature, ecological, education, upbringing, culture, protection, impact

So'nggi yillarda yurtimizda global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ekologik muammolarni oldini olish va bartaraf etishda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi belgilab qo'yildi. 2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturida aholining ekologik huquqlari va majburiyatlari o'z aksini topdi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham aholi orasida ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir vazifalar o'rin olgan.

Jamiyatda huquqiy ong va ekologik madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish deganda asosan bolalarda tabiatga mas'uliyatli, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish ta'lim muassasasining talabalar o'rtasida inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari va natijalarini bilishga qaratilgan ilmiy

bilimlar tizimini shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlashi sharti sifatida tabiatga va uni muhofaza qilishga nisbatan ekologik qiymat yo'nalishlari, me'yorlari va qoidalari bilan belgilanadi. Ekologik madaniyat insonni tabiat bilan bog'lashning yangi usuli, uni chuqurroq bilish asosida uni muhofaza qilish sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda ekologik madaniyat ekologik ong darajasining ko'rsatkichidir. Hozirgi vaqtda ekologik madaniy shaxsni shakllantirish muammosi «inson-jamiyat» tizimida shaxsning o'zaro ta'sirini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan bir qator masalalarni muhokama qilishda markaziy masalalardan biriga aylanmoqda, chunki ekologik madaniyat insoniyatning umumiy madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda birinchi o'rinda ekologik ta'limga etibor qaratmoq muhim vazifa hisoblanadi deb o'ylayman.

Ekologik ta'lim - kishini hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun unga tegishli, tizimlashgan, muddatli ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya berish vositasi. Uning maqsadi - kishilarni, jumladan, O'zbekiston fuqarolarining hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash uchun ularga ekologik bilimlarni berish, ularda tegishli ko'nikmalar va malakalarini hosil qilishdir. «Ekologik ta'lim» - uzluksiz o'qitish jarayoni bo'lib, atrof muxitni muxofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan maxsus bilimlarga ega bo'lish, qadriyatlarni va hulq normalarini shakllantirish, shu jumladan o'zo'zini o'qitish, tajriba orttirish va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Ekologik ta'lim bu: Ekologik madaniyatni shakllantirish elementi; Maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, professional va oliy professional ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kasbiy tayorgarlik va malakani oshirishni o'z ichiga olgan tizim. Ekologik ta'limni chuqur egallagandagina ekologik tarbiya shakllanadi desak mubolag'a bo'lmadi.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari.

- tabiatni muhofaza qilishga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish;
- go'zallik tuyg'usini, uni tabiatda topish va ko'rish qobiliyatini tarbiyalash;
- sayyoradagi barcha tirik mavjudotlar o'zaro bog'liqligi to'g'risida tushunchani shakllantirish;
- tabiatga tajovuzkor va halokatli ta'sirga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish;
- yoshlar faoliyatining zarur yo'nalishga qaratish, yosh avlodning bilim, fikrlash doirasini kengaytirish;

Umuman olganda, ekologik ta'limning vazifalari o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi bilim, tarbiyaviy va atrof-muhit faoliyati orqali bola shaxsining uyg'un ekologik rivojlanishiga hissa qo'shadigan samarali sharoitlarni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA
2. X.M.PO‘LATOVA TABIATSHUNOSLIKNI Q‘QITISH MAXSUS METODIKASI O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, Toshkent - 2006
3. “EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA” MODULI BO‘YICHA O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A Toshkent 2023